



BUYRUQ

Toshkent shahri

№ 154 «27» декабрь 2022 yil

Avtomobil yo'llari qo'mitasining sohaviy ilmiy-texnik Kengashi tarkibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Investitsiya loyihalari o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi uchun loyihalar tashabbuskorlari bo'lgan tashkilotlarning ma'suliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 15-maydagi 285-son qarori ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash maqsadida buyuraman:

1. Avtomobil yo'llari qo'mitasining sohaviy ilmiy-texnik Kengashining yangilangan tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-maydagi 285-son qarori ijrosini ta'minlash to'g'risidagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2017-yil 19-maydagi 42-son buyrug'ining 3-bandi, to'rtinchi xatboshisi o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.
3. Mazkur buyruqning ijro nazorati qo'mita raisi o'rinbosari-bosh muhandis O.Ch.Adilov zimmasiga yuklatilsin.

Qo'mita raisi

A. Abduvaliyev

**Avtomobil yo'llari qo'mitasining sohaviy ilmiy-texnik Kengashi
tarkibi**

| | |
|--------------|--|
| O.Ch.Adilov | Avtomobil yo'llari qo'mitasi raisi o'rinbosari-bosh muhandis, sohaviy ilmiy-texnik Kengash raisi |
| I.E.Xojiyev | Avtomobil yo'llari qo'mitasining Avtomobil yo'llaridan foydalanish va texnik holatini tahlil qilish boshqarmasi boshlig'i |
| M.B.Xamrayev | Transport vazirligi huzuridagi Yo'l qurilish ishlari sifatini nazorat qilish Inspeksiyasi bosh mutaxassisi |
| S.A.Tadjiyev | "Yo'l loyiha byurosi" MCHJ tarkibidagi filiallar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i |
| G'.Y.Zohidov | "Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish direksiyasi" DUK bosh muhandisi |
| D.R.Kasimov | "O'zbekiston temir yo'llari" AJ Texnik siyosat boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari |
| A.A.Nazarov | Toshkent davlat transport universiteti "Transport tizimlari boshqaruvi" fakulteti, Yo'l harakatini tashkil etish kafedra mudiri, professor |
| J.I.Baltayev | Qurilish vazirligi "Qurilish sohasida texnik me'yorlash va yangi texnologiyalarni joriy etish" boshqarmasining bosh mutaxassisi |
| A.D.Mamatov | "O'zyo'lloyiha" LQI" DUK Texnik va yo'l tarmog'ini rivojlantirish bo'limi boshlig'i |
| B.B.Gafurov | Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi xizmati Yo'l infratuzilmalarini nazorat qilish bo'limi boshlig'i |
| R.O.Dushanov | "Transyo'lqurilish" MCHJ bosh texnologi |
| O.T.Ismailov | "Avtomobil yo'llari ilmiy-tadqiqot instituti" UK direktori, sohaviy ilmiy-texnik Kengash kotibi |

Izoh: 1. Kengash a'zolaridan birortasi boshqa ishga o'tgan taqdirda, ilmiy-texnik kengash tarkibiga uning o'rniga ushbu lavozimga yangi tayinlangan shaxslar yoki muvofiq vazifalar yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

2. Zaruratdan kelib chiqib sohaviy ilmiy-texnik Kengashi ishiga boshqa rahbarlar va mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.